

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MEHNAT
MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Qalandarov Shohinur Azamat o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti magistratura talabasi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy sohada demokratik tamoyillarning keng yoyilishini taminlaydi. Bir tomondan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi insonga yollanma ishchi yoki mustaqil tadbirkor bo‘lishni tanlash imkoniyatini beradi. Ikkinchi tomondan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyati yirik korporatsiyalar faoliyatiga nisbatan ko‘proq erkin bozor qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirishda kichik biznesning ushbu vazifasi muhim ahamiyatga egadir. Chunki respublikamizning asosini tashkil etuvchi yirik korxonalarning davlatga bog‘liqlik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli ularni bozorning erkin subyektlari sifatida ko‘rish qiyin. Kichik biznesning ikkinchi vazifasi sifatida uning yashirin, integrativ (iqtisodiyotni bitta butunlikka bog‘lovchi) vazifasini ko‘rsatish lozim [2]. Bu vazifani bajaruvchi firmalarni kommutantlar deb atalib, yaratilgan innovatsion mahsulotini ommalashtirishga xizmat qiladi.

Jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyoti tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining ustuvor ahamiyat kasb etishi hamda xo‘jalik faoliyatining ijtimoiylashuv jarayonlarining jadallashuvi zamonaviy ijtimoiy-mehnat munosabatlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida “kichik va o‘rta biznes korxonalari umumiy ish bilan bandlarning 60,0 foizini va YAIMning 40,0 foizini ta‘minlamoqda. Agarda norasmiy kichik va o‘rta biznes korxonalari hisobga kiritilsa, bu raqamlar ahamiyatli darajada oshadi. Ya‘ni 15 yil ichida Osiyo va Afrikada global ishchi kuchining o‘rishini ish bilan ta‘minlash uchun 600 mln. ish joylari talab etiladi.

Jahonda kichik va xususiy biznes sohasini rivojlantirish borasidagi tajribalar negizida ijtimoiy-mehnat munosabatlari tizimida kichik biznes subyektlarining faollik darajasini baholash, kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalash hamda kreditlash, ish joylarining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muvofiqligini ta‘minlash, sohada mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish, xodimlarning mehnat natijalaridan manfaatdorligini oshirish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda, ayniqsa, keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, bu jarayonda sohada ijtimoiy-mehnat munosabatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Joylardagi ijtimoiy

muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo‘l ochib beriladi». Bu borada mehnat munosabatlari tizimida kichik biznes subyektlarining faollik dara-jasini baholash uslubiyotini takomillashtirish, ijaraga olingan mehnatni tartibga solish, sohada ijtimoiy-mehnat munosabatlarining axborot-analitik bazasini takomillashtirish va subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishning prognoz parametrlarini asoslash kabi yo‘nalishlarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorliksiz ba’zi bir bozor ehtiyojlarni to‘laligicha qondirib bo‘lmaydi. Bu shunday ehtiyojlarki, ularni qondirish uchun katta hajmdagi va o‘ta yuqori foydali yoki ixtisoslashgan ishlab chiqarishni tashkil qilish lozim, bu talabga javob bermaydigan boshqa ehtiyojlar esa qondirilmay qoladi. Shu bilan birga, kichik biznes o‘zining mijozlarini va differensiyalashgan bozorlarni yaxshi bilganligi sababli bozor afzalliklaridan foydalanadi. Bu, avvalo, yirik korxonalarni o‘zining kichik hajmlari sababli unchalik ham qiziqitirmaydigan bozor segmentlarida xizmat qilayotgan korxonalarga tegishli. Ular qatoriga iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishning katta qismi kiradi. Kichik biznes talab o‘zgarishlariga juda sezgir bo‘ladi, mijozlarning yangi hamda individual talablarini qondirishga ulguradi. Biznesning rivojlanishi ko‘proq hozirgi zamon madaniyatida sodir bo‘layotgan chuqur o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Agar bir nechta o‘n yilliklar oldin tovarni realizatsiya qilishning muvaffaqiyatli bo‘lishi bozor standartlariga muvofiq bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, bugungi kunda unig yangiligi, tashqi ko‘rinishining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Shunga o‘xshash tendensiyalar xizmat sohasiga ham taalluqli - talab servisning sifati va xilma-xilligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354- sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada

soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-son.

5. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>